

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



I
BRENDING
N
O
V
MARKETING
T
BIZNES
I
Y
S
RAQAMLI MARKETING
V
D
ELEKTRON TIJORAT

№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 670 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

MUNDARIJA

OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI	9
Yunusov Baxodir Marisovich	
ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES.....	22
Djurabaev Otabek Djurabayevich	
BALIQCCHILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	29
Dusmurotov Radjabbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI	37
Egamshukurov Zayniddin Sodikovich	
KORXONA MAHSULOTLARI ISTE‘MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI.....	45
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.....	52
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	
DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES.....	61
Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI.....	68
Mirazimova Zulfiya	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....	79
Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI	86
Muxamedova Muslima Maxmudovna	
DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.....	96
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
Qurbonov Alisher Boboqulovich	

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI	110
Rashidova Dildora Rasul qizi	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH	116
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	122
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	130
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI	140
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA BOSHQARUVNING INVESTITSİYALAR BILAN INTEGRATSIYASI	151
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH	161
Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich	
“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOY AHAMIYATI	172
Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna	
CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	194
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li	
RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	200
Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	210
Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI.....	218
Rajabova Mohichehra Abduxoligovna	

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	227
Salayev Jasurbek Komilovich	
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.....	248
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	267
Рахимова Тамила Баходур кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	279
Ibodullaev Abror Axrorovich	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.....	295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIIY SOHALARGA TA‘SIRINI BAXOLASH	304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li	
QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA‘MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna	
TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	
VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE	324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi	

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN.....	336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI	366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich	
THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY'S WORLD	373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN'ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA'SIRI.....	380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY INFRATUZILMASINING ROLI VA O'RNI.....	389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN	396
Olimova Sevara Komil kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH	406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo'minov Muslimbek Mirzoxid o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES.....	416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
ICHKI AUDITDA TAHLILIY AMALLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING	445
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	

AHOLINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	454
Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li	
ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	460
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH	470
Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li	
TA‘LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
IJTIMOIIY MUHIM OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH	489
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	
MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH.....	511
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
SANOAT KLASSTERLARINING SHAKLLARI VA KLASSTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI	522
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI.....	527
Ivatov Irisbek	
QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	535
Saburov Jumanazar Saliyevich	
CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	542
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li	
SANOAT KLASSTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA	549
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	555
Xalimov Akmaljon Axmadovich	
OLIY TA‘LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	561
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	
APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	567
Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li	

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA’SIRI	575
Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich	
TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O’SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR.....	584
Islomova Dilrabo Salomovna	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH	591
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich	
OLIY TA’LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO’RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO’RSATKICHLARI.....	602
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,	
IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI).....	608
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	615
Raximov Ilyos Muydinovich	
MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.....	627
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)	637
Azimov Shakhzod	
OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA’LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	649
Eshov Mansur Po‘latovich	
ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS.....	663
Zilola Davronova G‘ulomovna	

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STARTEGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Ahmedova Nigora Temur qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti,

ORCID: 0009-0009-1785-5834

Saidov Mash'al Samadovich

ALFRAGANUS universiteti professori i.f.d.

ORCID: 0009-0008-7814-3972

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillariga asoslangan kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish masalasi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan o'rganilgan. Ta'lim jarayonida xalqaro va milliy tajribalardan kelib chiqib, sifat menejmentining ustunliklari hamda muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini joriy etishning hozirgi holati, mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada mehnat bozori ehtiyojlariga javob beruvchi, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun sifat menejmentiga asoslangan milliy model taklif etilgan. Ta'lim sifatini oshirishda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va pedagoglar malakasini oshirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, sifat menejmenti, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini ta'minlash, xalqaro standartlar, ISO 9001, innovatsion texnologiyalar, mehnat bozori talablari, ta'lim dasturlari, pedagoglar malakasi, sifat monitoringi, manfaatdor tomonlar, milliy model, ta'lim tizimi modernizatsiyasi.

Аннотация

В данной статье с научной и практической точки зрения исследуется вопрос разработки стратегии подготовки кадров на основе принципов управления качеством в высших учебных заведениях. В образовательном процессе на основе международного и национального опыта проанализированы преимущества и проблемы управления качеством. Также разработано современное состояние внедрения менеджмента качества в системе высшего образования Узбекистана, существующие препятствия и практические рекомендации по их устранению. В статье предлагается национальная модель, основанная на управлении качеством подготовки конкурентоспособных специалистов, отвечающая потребностям рынка труда. Основными направлениями повышения качества образования определены эффективное сотрудничество с заинтересованными сторонами, использование инновационных образовательных технологий и повышение квалификации педагогов.

Ключевые слова: высшее образование, управление качеством, обучение, обеспечение качества образования, международные стандарты, ISO 9001, инновационные технологии, требования рынка труда, образовательные программы, квалификация педагогов, мониторинг качества, заинтересованные стороны, национальная модель, модернизация системы образования.

Abstract

This article examines the development of a personnel training strategy based on the principles of quality management in higher education institutions from a scientific and practical point of view. In the educational process, based on international and national experience, the advantages and problems of quality management and their elimination are analyzed. The current state of implementation of quality management in the higher education system of Uzbekistan, existing obstacles and practical recommendations for their elimination are also developed. The article proposes a national model based on quality management of training competitive specialists, meeting the needs of the labor market. The main areas for improving the quality of education are defined as effective cooperation with stakeholders, the use of innovative educational technologies and advanced training of teachers.

Keywords: higher education, Quality Management, Personnel Training, Education Quality Assurance, International Standards, ISO 9001, innovative technologies, labor market requirements, educational programs, educator qualifications, quality monitoring, stakeholders, national model, education system modernization.

KIRISH

Global hamjamiyat oldida turgan asosiy maqsadlardan biri — barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishishdir. Bu maqsadga erishishda ta'lim sifati muhim rol o'ynaydi. Mehnat bozori talablariga mos keladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda samarali ta'lim tizimini shakllantirish ushbu jarayonning asosiy omillaridan biridir.

Xususan, iqtisodiyotning turli sohaları uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim o'rinda turadi. Chunki oliy ta'lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishi, mustaqil tahlil qilish, muammolarni ijodiy hal etish va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi lozim.

Globallashuv va raqobatbardoshlik tobora kuchayib borayotgan bir paytda oliy ta'lim sifati milliy taraqqiyotning muhim indikatorlaridan biriga aylanishi tabiiy. Bu jarayonda ta'limning samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini boshqarishda zamonaviy vositalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillarini amalga oshirish va shu asosda uzoq muddatli kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biridir. Ta'lim tizimiga sifat menejmenti tamoyillari joriy etilganda, ta'lim jarayonini tizimli boshqarish, uning sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va uzluksiz takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim muassasasining ichki resurslarini to'liq safarbar etishga

yordam beradi, balki mehnat bozori, jamiyat va davlat talablarini inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko'taradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi yetakchi davlatlar oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini tatbiq etish orqali ta'lim jarayonini tizimli boshqarishga erishgan. Ushbu tizim faqat ta'lim mazmuni bilan cheklanmay, balki boshqaruv tizimi, professor-o'qituvchilarning malakasi, ta'lim muhiti, infratuzilma hamda axborot resurslarini ham qamrab oladi. Natijada, bu yondashuv ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan.

Ta'lim sifatini oshirish masalasi O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida sifat boshqaruvini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha ichki nazorat tizimlarini shakllantirish, xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va menejment texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlarida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim tizimida hali sifat menejmentiga asoslangan strategiyani to'liq holda ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayoni yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining natijadorligini oshirish va oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida sifat menejmentining zamonaviy vositalaridan foydalanish hamda shu orqali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifat menejmenti asosida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash strategiyasi oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvga tizimli yondashuvni shakllantirib, ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, baholash va takomillashtirish uchun ishonchli mexanizm vazifasini bajaradi.

Shu jihatdan olib qaraganda, oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish ilmiy-nazariy, amaliy va innovatsion ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu strategiya nafaqat oliy ta'lim muassasalarining ichki rivojlanishiga turtki beradi, balki ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasida samarali integratsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Agar oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan strategik maqsadlar aniq belgilanib, sifat menejmenti asosida tizimli dastur va rejalar ishlab chiqilsa, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash hamda jahon ta'lim makonida munosib o'rin egallashga erishish mumkin.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi jahon ilmiy-innovatsion makoniga integratsiyalashuv jarayonida tubdan yangilanib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilmoqda. Bu jarayonda ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar yetishtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba esa ta'lim sifatini kafolatlash va boshqarishda sifat menejmenti tamoyillarini joriy etish samarali usul ekanligini ko'rsatmoqda. Sifat menejmenti nafaqat ta'lim jarayonini nazorat qilish, balki uni tizimli ravishda takomillashtirish, barcha ishtirokchilar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda har bir bosqichda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash demakdir.

Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillarini tatbiq etish orqali kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim muassasalari, balki ish beruvchilar, talabalar hamda jamiyat manfaatlariga ham mos keladi.

Globalashgan mehnat bozorida zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar yil sayin o'zgarib ortib bormoqda. Bu jarayonda texnologik inqiloblar, raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot, tadbirkorlik va startap madaniyati asosiy o'rin tutmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari esa faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki talabalarga hayotiy ko'nikmalarni singdirish, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ko'p tillilik hamda raqamli savodxonlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish, jumladan, ISO 9001 sifat menejmenti tizimi talablarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur mavzuning milliy miqyosdagi dolzarbligini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlari ham ko'rsatadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida¹ ta'lim sifatini baholash bo'yicha milliy tizimni shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarini reyting asosida baholash hamda ularning xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash yo'lidagi eng muhim bosqichlardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish nafaqat ta'lim tizimi, balki iqtisodiyotning barcha sohalari uchun ham strategik ahamiyatga ega. Chunki sifatli ta'lim — yuqori malakali mehnat resurslarini shakllantirishning asosiy omilidir.

Shu jihatdan olib qaraganda, ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta bo'lib, u zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida <https://lex.uz/docs/-4545884>

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillarini joriy etish va shu asosda kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish masalasi xalqaro va milliy darajada yetarlicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlar ko'pincha umumiy tavsiyalar bilan cheklanib qolgan yoki muayyan mamlakat sharoitiga moslashtirilgan modellarni o'z ichiga olgan. Natijada, har bir mamlakatning ta'lim tizimiga xos milliy xususiyatlar, ta'lim an'analari va kadrlar tayyorlashdagi real ehtiyojlar to'liq qamrab olinmagan.

Xalqaro tadqiqotlar tahliliga yuzlaniladigan bo'lsa, Uilyam Edvards Deming tomonidan ishlab chiqilgan 14 tamoyil butun dunyoda ta'lim sifatini oshirishda keng qo'llanilgan [2]. Demingning asosiy g'oyasiga ko'ra, ta'lim sifatini ta'minlashda doimiy takomillashtirish falsafasi muhim o'rin tutadi. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu tamoyillar asosan sanoat va ishlab chiqarish sohalariga mos kelib, ta'lim kabi ijtimoiy tizimning o'ziga xos jihatlarini to'liq aks ettirmaydi. Shuning uchun ularni ta'lim sohasiga to'g'ridan-to'g'ri joriy etishda turli moslashtirishlar zarur bo'ladi.

Jozef Juran sifatni boshqarishda rejalashtirish, nazorat va takomillashtirish kabi uchta asosiy yo'nalishni ilgari surgan. Ushbu yondashuv aniq mantiqiy izchillikka ega bo'lib, ta'lim jarayonida ham samarali qo'llanishi mumkin [3]. Biroq, Juran modeli tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, ta'limdagi ijodiy jarayonlar, talabalarning individual rivojlanishi hamda ta'lim muhitining barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Oliy ta'lim jarayoni faqatgina reglament va nazorat bilan cheklanmasligi, balki pedagogik innovatsiyalar, akademik erkinlik va ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'un ravishda rivojlanishi lozim.

Sifat menejmenti sohasidagi taniqli mutaxassislardan biri — Filip Krosbi “Sifat — bu bepul” degan shior ostida sifatni boshqarishning iqtisodiy samaradorligiga alohida e'tibor qaratgan. U ta'lim jarayonida asosiy vazifa sifatida xatolarni oldini olish va sifat madaniyatini shakllantirishni ko'rsatadi [4]. Biroq, ushbu yondashuvning cheklovchi jihat shundaki, ta'lim sohasida har qanday xatoni sifatsizlik deb hisoblash to'g'ri emas. Ba'zan ta'lim jarayonidagi xatolar ijodiy tajriba orttirish yoki yangi yondashuvlarni kashf etishga turtki bo'lishi mumkin. Shu sababli, Krosbi yondashuvi ta'limning o'ziga xos xususiyatlariga to'liq mos kelmaydi.

ISO 9001:2015 standarti ta'limdagi sifatni boshqarishda amaliyotda keng tatbiq etilmoqda. Ta'lim jarayonini boshqarish uchun bu universal platforma sifatida tavsiya etiladi. Biroq, tanqidiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu standart turli sohalarga mo'ljallangani sababli ta'lim tizimi uchun yetarli darajada moslashtirilmagan [5]. Xususan, ushbu standartda ta'lim jarayonidagi akademik erkinlik, ijodiy yondashuvlar va noyob ta'lim an'analari kabi omillar inobatga olinmagan. Shuning uchun ISO 9001 tamoyillarini oliy ta'lim tizimiga joriy etishda ularni maxsus moslashtirish va milliy ta'lim muhitiga integratsiya qilish zarur.

UNESCOning 1998-yildagi “XXI-asr oliy ta'limining global deklaratsiyasi” (UNESCO, 1998) ta'lim sifatini ta'minlashda shaffoflik, innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlikka urg'u beradi. Ushbu deklaratsiya global nuqtai nazardan muhim

bo'lsa-da, unda har bir mamlakatning milliy ta'lim an'analari va kadrlar tayyorlash ehtiyojlari yetarli darajada inobatga olinmagan [6]. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi infratuzilma muammolari va moliyaviy ta'minot masalalari deklaratsiyada yetarlicha yoritilmagan.

Milliy tadqiqotlarga yuzlanadigan bo'lsak, M. Abdullayeva va A. Karimovlar tomonidan O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti tamoyillarini tatbiq etishning amaliy tarkiblari o'rganilgan [7]. Mualliflar ta'lim sifatini ta'minlash uchun milliy modelni ishlab chiqish va uni ISO standartlari bilan integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Biroq, ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonidagi innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli transformatsiya masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

N. A. Ochilovlar o'z tadqiqotlarida ta'lim dasturlarini sifatli shakllantirish va baholash mexanizmini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Uning ishlarida ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchilarning kompetensiyasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash kabi omillar muhim jihatlar sifatida qayd etilgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan ta'lim jarayonining ichki sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlik darajasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqaro va milliy adabiyotlar tahlili orqali oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillarini joriy etish uchun yagona universal model mavjud emasligini ko'rsatadi. Har bir mamlakat o'zining ta'lim an'analari, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olib, milliy sifat boshqaruv tizimini yaratishi lozim. Xalqaro standartlarning to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi esa ko'pincha muvofiqlik muammolari va moslashish qiyinchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda tub islohotlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, sifat monitoringini yo'lga qo'yish va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sifat menejmenti tamoyillari ko'p hollarda faqat formal tusda bo'lib, uning ta'lim jarayoniga real ta'siri cheklangan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mavjud muammolar orasida moliyaviy resurslar yetishmovchiligi yetakchi o'rinda turib, bu holat 65 foizni tashkil etadi. Bu esa sifat nazorati va ta'lim tizimining uzluksiz takomillashtirilishi uchun alohida moliyaviy mablag' ajratilmayotgani katta to'siq bo'lib qolmoqda. Sifat menejmenti

samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakali kadrlar yetishmovchiligi (58%) esa sifat menejmenti sohasi bo'yicha tajribali mutaxassislarining yetishmasligi tufayli jarayonlarning samarali boshqarilishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun sifat menejmenti bo'yicha malaka oshirish kurslari va maxsus ta'lim dasturlarini rivojlantirish va kengaytirish lozim.

Sifat madaniyatining pastligi 53 foizni tashkil etadi va ko'rinib turibdiki, aksariyat ta'lim muassasalarida sifat menejmenti faqat nazorat jarayoni sifatida qabul qilinmoqda. Aslida esa, sifat madaniyati doimiy rivojlanish va jarayonlarni takomillashtirish tamoyillariga asoslangan tizimli yondashuv bo'lishi lozim.

Ish beruvchilar bilan aloqaning qoniqarli emasligi (48%) esa talabalar va ularning kelajakdagi ish beruvchilari o'rtasida yetarli darajada hamkorlik yo'lga qo'yilmaganidan dalolat beradi. Bu esa kadrlar tayyorlash jarayoni mehnat bozori ehtiyojlariga to'liq mos kelmayotganligini ko'rsatadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun universitetlar va ish beruvchilar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhimdir (1-jadval).

1-jadval

Sifat menejmenti tamoyillarini joriy etishdagi muammolar¹

Muammolar	Hissasi (%)	Izoh
Moliyaviy resurslar yetishmovchiligi	65%	Sifat nazoratiga alohida budget ajratilmaydi
Malakali kadrlar yetishmovchiligi	58%	Sifat menejmenti bo'yicha ekspertlar yetishmaydi
Sifat ma'daniyati pastligi	53%	Sifatni ta'minlash faqat nazorat deb qabul qilinadi
Ish beruvchilar bilan zaif aloqa mavjudligi	48%	Fikr-mulohazalar mexanizmi ishlamagan
Jahon standartlariga integratsiya past	44%	Xalqaro tajriba o'rganish cheklangan

Sifat menejmenti madaniyati shakllanmaganligi tizimli muammo hisoblanadi. Ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqaning yo'qligi talab va taklif o'rtasida nomutanosiblikka olib kelmoqda.

Sifat menejmenti bo'yicha o'qituvchi va ma'muriy xodimlar uchun maxsus treninglar hamda malaka oshirish kurslari yetarli emas.


Sifat menejmenti asosida kadrlar tayyorlashning milliy modeli

O'zbekiston sharoitida sifat menejmenti tamoyillarini tatbiq etish orqali kadrlar tayyorlashning milliy modeli taklif etildi (1-rasm).

Oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli mehnat bozorining ehtiyojlarini asosiy e'tiborga oladi. Barcha jarayonlar milliy sifat siyosati asosida uyg'unlashtiriladi. Ta'lim sifatini ta'minlashda

¹ Muallif ishlanmasi

esa doimiy monitoring, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda innovatsion texnologiyalar muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli¹

Sifat menejmenti tamoyillarini tatbiq etishda eng asosiy bosqich — natijalarni tahlil qilish va doimiy monitoring olib borishdir. Buning uchun maxsus ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi kerak.

- O'quv dasturlarining sifati (85%) — eng muhim indikator. Mehnat bozori talablariga mos keladigan o'quv dasturlari ta'lim sifatining asosiy omili sanaladi. Bu esa bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozimligini ko'rsatadi.

- Pedagoglarning malakasi (78%) — ta'lim sifatini belgilovchi omil. Zamonaviy metodikalar va innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan pedagoglar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa talabalar bilim darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- Moddiy-texnik ta'minot (72%) — texnologik imkoniyatlar. Ta'lim muassasalarining ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlanishi nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

- Ish beruvchilarning fikri (74%) — bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi. Ish beruvchilar ta'lim sifatining asosiy baholovchilaridan biri bo'lib, ularning fikri bitiruvchilarning kasbiy malakasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

- Talabalar qoniqish darajasi (66%) — ta'lim jarayonining shaffofligi. Talabalar ta'lim sifati va sharoitlar bo'yicha o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega

¹ Muallif ishlanmasi

bo'lishi tizimning ochiqqligini ta'minlashda muhimdir. Ushbu indikatorning nisbatan pastligi esa shaffoflikni oshirish va talabalar ehtiyojlariga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Oliy ta'lim jarayoni sifatini baholash indikatorlari¹

Ta'sir etuvchi indikator	Ahamiyat darajasi (%)	Amaliy ahamiyati
O'quv dasturlari sifatililigi	85%	Mehnat bozori talablariga mosligi
Pedagoglar kompetensiyasi	78%	Zamonaviy metodikalarni qo'llash darajasi
Moddiy-texnik baza	72%	Texnologik imkoniyatlar
Ish beruvchilar fikri	74%	Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi
Talabalar qoniqish darajasi	66%	Ta'lim jarayonining ochiqqligi va shaffofligi

Baholash indikatorlari mehnat bozoriga moslashuvchanlik, innovatsion yondashuv va talabalar qoniqishini birlashtirgan holda shakllantirilishi kerak. Bu indikatorlar asosida sifatning real holatini o'rganib borish va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish mexanizmi yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish bugungi kunda milliy ta'lim tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylamoqda. Chunki globallashuv va texnologik inqilob sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, balki butun ta'lim tizimini sifatni ta'minlashning innovatsion modellari asosida qayta tashkil etishni taqozo etmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti tamoyillari faqat ayrim tashkilotlarda rasmiy tarzda joriy etilgan bo'lib, ularning samaradorligi hali yetarlicha yuqori emas. Sifat boshqaruvi tizimi ko'p hollarda faqat hujjatlashtirish bilan cheklanib, ta'lim jarayonining real sifatini oshirishga yetarlicha ta'sir ko'rsatmayapti. Bu esa xalqaro standartlarga to'laonli moslashish, milliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash yo'lidagi katta to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqishda sifat menejmenti tamoyillariga tayangan holda, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari — davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, talabalar, ota-onalar, ish beruvchilar va keng jamoatchilik manfaatlarini uyg'unlashtirish juda muhim. Mehnat bozori bilan uzviy aloqa o'rnatish, ta'lim dasturlarini real iqtisodiyot ehtiyojlari bilan moslashtirish, bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy monitoring qilish strategik ahamiyatga ega.

¹ Muallif ishlanmasi

Oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Sifat menejmentining milliy modeli ishlab chiqilishi kerak. Bu model xalqaro standartlar talablarini inobatga olgan holda, milliy ta'lim an'analari va iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Bu modelda ta'lim jarayonidagi doimiy takomillashtirish, shaffof baholash, innovatsiyalarni keng joriy etish va manfaatdor tomonlar fikrini tizimli o'rganish asosiy o'rinni egallashi lozim.

- Sifat madaniyatini shakllantirish — bu faqatgina ma'muriy vazifa emas, balki oliy ta'lim muassasasining butun faoliyatini qamrab oluvchi strategik jarayon bo'lishi kerak. Har bir pedagog, har bir talaba ta'lim sifati uchun mas'uliyat his qilishiga erishish — sifatli ta'lim muhitining eng muhim asosidir.

- Ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Bu jarayonda ish beruvchilar faqat kuzatuvchi emas, balki ta'lim jarayonini shakllantirishda faol ishtirokchiga aylanishi lozim. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalarni amaliyotga jalb qilish, bitiruvchilarga qo'yiladigan zamonaviy talablarni belgilash kabi yo'nalishlarda ish beruvchilarning ishtirokiga alohida e'tibor qaratish kerak.

- Sifat monitoringi tizimida talabalar fikrini o'rganish va baholash amaliyotini institutsional darajaga ko'tarish lozim. Zamonaviy sifat menejmentida "mijozlarning qoniqish darajasi" eng muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Oliy ta'limda esa bu indikator talabalar, bitiruvchilar va ularning ota-onalari fikri asosida shakllanishi zarur.

- Pedagoglarning sifat menejmenti bo'yicha kompetensiyalarini oshirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Chunki ta'lim sifati, avvalo, o'qituvchi salohiyatiga bog'liq. Har bir pedagog sifat menejmentining zamonaviy yondashuvlarini bilishi va o'z faoliyatida tatbiq eta olishi lozim.

- Innovatsion ta'lim texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish sifatni oshirishning muhim omilidir. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, interaktiv ta'lim vositalari ta'lim jarayonini shaffof, samarali va manzilli qilish imkonini yaratadi.

- Mehnat bozori talablarini muntazam o'rganish va ularni ta'lim dasturlariga joriy etish mexanizmini shakllantirish zarur. Bu jarayonda sohaviy kengashlar, sektorlar kesimidagi ekspert guruhlar, klasterlarning faol ishtirokini ta'minlash zarur.

Oliy ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tamoyillari asosida kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish — bu faqatgina ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tashabbus emas. Bu, avvalo, mamlakatning innovatsion taraqqiyoti, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va yuqori malakali, xalqaro standartlarga javob beradigan kadrlar tayyorlash bo'yicha uzluksiz va strategik jarayondir. Oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun sifat menejmentiga asoslangan, ilg'or xalqaro tajribalardan samarali foydalanilgan va milliy ta'lim an'analari bilan uyg'unlashgan tizimni yaratish — bugungi kun talabi va strategik zaruratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

2. Deming W.E. (1986). Out of the Crisis. MIT Press.
3. Juran J.M. (1999). Juran's Quality Handbook. McGraw Hill.
4. Crosby P. (1979). Quality is Free. McGraw Hill.
5. ISO 9001:2015. Quality management systems — Requirements. International Organization for Standardization.
6. UNESCO (1998). World Declaration on Higher Education for the Twenty-First Century. UNESCO Publishing.
7. Abdullaeva M., Karimov A. (2022). Oliy ta'lim sifatini ta'minlashda menejment tamoyillari. Toshkent.
8. Ochilov N.A. (2021). Oliy ta'lim sifati va ta'lim dasturlarini takomillashtirish. Toshkent.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**